



## BOLA SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK JARAYON

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10694248>

**Rajabova Go'zal Zarifovna**

*Buxoro davlat pedagogika instituti Pedagogika kafedrasи o'qituvchisi*

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'zbek folklor an'analari asosida bola shaxsini shakllantirishning ahamiyati, shuningdek, psixologiyaga oid ilmiy-ijodiy yangiliklarni, ayniqsa, folklor an'analari asosida bola shaxsini shakllantirish borasida mashg'ulotlarni bugungi yoshlarning salohiyatiga mos zamonaviy talablar asosida tashkil qilish texnologiyasini o'rGANISHNING ahamiyati haqida fikr bildirilgan.

## СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ПРОЦЕСС В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТИ РЕБЕНКА

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается важность формирования личности ребенка на основе узбекских фольклорных традиций, а также научных и творческих новаций, связанных с психологией, особенности технологии организации обучения по формированию личности ребенка на основе фольклорных традиций, с учетом современных требований, которые отвечают потенциалу современной молодежи, выражается важность обучения.

## SOCIO-PSYCHOLOGICAL PROCESS IN THE FORMATION OF A CHILD'S PERSONALITY

### ANNOTATION

This article discusses the importance of forming a child's personality based on Uzbek folklore traditions, as well as scientific and creative innovations related to psychology, features of the technology of organizing training for the formation of a child's personality based on folklore traditions, taking into account.

**Kalit so'zlar**



folklor an'analari, urchodat va marosimlar, psixologik maqsadlar, g'oyaviy-badiiy mazmunni anglash, idrok etish, tasavvur, faol munosabatlar.

### Ключевые слова

фольклорные традиции, обычаи и обряды, психологические цели, понимание идеально-художественного содержания, восприятие, воображение, активные отношения.

### Key words

folklore traditions, customs and rituals, psychological goals, understanding of ideological and artistic content, perception, imagination, active relationships.

**Kirish.** O'zbek xalqi folklor an'analari o'zining tarbiyaviy imkoniyatlari bilan boshqa xalq og'zaki ijodining turlariga nisbatan alohida jozibadorlik va ta'sirchanlik kasb etadi. Xalqimiz o'zining ijtimoiy, ma'naviy taraqqiyotining har bir bosqichida, uning turfa ko'rinishlari, urchodat va marosimlariga atab juda ko'plab namunalarini yaratgan. Bu esa, uzoq o'tmishdan madaniy va ma'rifiy jihatdan o'ziga xos an'anaga aylanib kelgan xalq hayotining turli qirralarini badiiy estetik ifodasi sifatida, an'anaviylik asosida avloddan-avlodga o'tib, kishilar tarbiyasiga bevosita yoki bilvosita kuchli, badiiy-emotsional ta'sirini ko'rsatib kelmoqda.

Folklor an'analari mazmunida bolalarning o'ziga xos quvnoq, o'yinqaroq, sodda va beg'ubor hayoti, dunyoqarashlari, bolalarbop o'yinlar, aytishuvlar va muayyan voqelik bilan bog'liq jarayonlarni ifoda etishi bilan o'ziga xos xususiyatga egadir. Bolalar folklor an'analarni o'rganish va tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ular ham xalq og'zaki ijodining ommaviy turlari singari badiiy va g'oyaviy mazmunga ega bo'lib, sodda shakli, ijob uslubi, nihoyatda ixcham, xarakteriga egadir. Shu bilan birga ulardan psixologik maqsadlarda keng foydalanish birmuncha qulaylik tug'diradi. Bola shaxsining shakllanisida "psixologik ta'sirni ham muayyan faoliyatning psixologik asosini o'zgartirishga olib keladigan jarayon sifatida ham, natijada ham (haqiqiy o'zgarish) deb hisoblash mumkin" [1].

Folklor namunalari bolalarning ruhiy, aqliy, badiiy tafakkuri, psixologik va dunyoqarashiga mos soddaligi, oson va qulayligi bilan bolalar diqqatini o'ziga tez jalg qila oladi. Shuning uchun ham muktabgacha ta'lim muassasalari hamda umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida o'quvchi-yoshlarda milliy folklor an'analari qiziqish va ishtiyoq uyg'otish, bolalar folklor namunalarini o'rganish va ularning g'oyaviy-badiiy mazmunini anglash, idrok etish, tasavvur etish bilan ularga o'z munosabatini bildira olish an'analarni asta-sekinlik bilan jiddiy hamda murakkab turlariga ijodiy, faol munosabatni shakllantirish mumkin.

Umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida o'qitiladigan fanlar dasturi va darsliklarida ko'plab xalq og'zaki ijodiyoti namunalari bilan bir qatorda



xalq qo'shiqlaridan ba'zilari hamda bolalar folkloriga oid ayrim namunalar kiritilgan. Ta'limning ilk davrlaridan boshlab bolalarga bunday namunalarni o'rgatish, ijro ettirish jarayonida ularga og'zaki an'anadagi milliy folklor, uning yetakchi janrlari, tuzilishi va an'anaviy ijro uslublari haqida eng zarur tushunchalarni berish asosiy maqsad qilib qo'yilgan. Bolalar folklori tarkibidan o'rinn olgan ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lган, she'r va qo'shiqlar o'quvchilarni estetik tarbiyalash, ularga milliy qadriyatlarni singdirish, ajodlar an'analaridan xabardor qilish va barkamol inson shaxsini psixologik shakllantirishda ijobiy ta'sir ko'rsatadigan xususiyatlarga ega.

Har bir millat, elat va etnik guruhning o'ziga xos udumlari, urf-odatlari, an'ana va marosimlari bor. U avloddan avlodga, davrdan davrga meros bo'lib o'tadigan, muayyan ijtimoiy guruh tomonidan qabul qilingan xulq-atvordir. Bu boy merosimiz o'zining mazmundorligi, tarbiyaviyligi, umrboqiyligi bilan boshqa millatlardan ajralib turadi. Hayot kishilarda ezgu niyat, maqsadga intilish, e'tiqod va barcha orzu-armonlarni, toza ruh va xotirani, jamiyatning yaxshi niyatlarini, qadimiy an'analarini o'zida jamuljam etgani uchun ham kishilar hayotiga singib ketgan.

O'zbek xalqining folklor an'analarini merosi juda boy va qadimiy tarixga ega. Uning ajoyib an'analarini hozirgi kunda ham o'z badiiy va estetik qiymatini saqlab kelmoqda. Bu an'analar zamonaviy o'zbek musiqa xalq og'zaki ijodining ajralmas qismini tashkil qiladi. O'zbek xalqining o'z ildizlari bilan qadim-qadim zamonlarga borib taqaladigan folklor an'analarini merosi xilma-xil janrlari hamda boy tasviriy vositalari bilan bizning kunlarimizda ham yangramoqda. U o'zida xalq ijodi (ya'ni asl folklor) hamda kuy tuzilishi jihatdan rivojlangan ashula va cholg'u asarlar (jumladan siklli maqom va boshqa janrlar)ni o'z ichiga olgan og'zaki an'anadagi professional musiqani birlashtiradi. «Folklor» - atamasi ingliz tili leksikasiga mansub bo'lib, u ikki so'z, ya'ni folk (folk) - xalq va lore (lore) - donolik so'zlarining birikmasidan tashkil topgan va u «xalq donishmandligi» degan ma'noni bildiradi. U birinchi marta 1846-yilda Vilyam Toms tomonidan ishlatalilib va shundan boshlab iste'molga kiritildi [2.5].

Folklor - xalq ijodiyotining barcha sohalarini o'z ichiga oladi va xalq og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga o'tib to'ldiriladi va sayqal topadi. Xalq og'zaki ijodinig asosiy xususiyati shundaki, u ko'pchilik tomonidan yaratiladi va ijro etiladi. Xalq og'zaki ijodi namunalari katta ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Fikrimizcha barkamol shaxsni tarbiyashda ta'lim-tarbiya jaroyonida buyuk allomalarimizning o'gitlaridan foydalanishi zarur. Zero, har birining ta'limiy-tarbiyaviy usullari, tarbiya nazariyasi va amaliyoti, ta'lim nazariyasi va amaliyoti, ta'lim tizimini boshqarishda, farzand tarbiyasida mutafakkirlarimizning har bir asarlari va fikrlari barkamol insonni tarbiyalashda millliylik va o'ziga xos tarzda



ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan sharq allomalari merosidan ko'proq foydalanish yosh avlodning psixologiyasi ijobiy ta'sir korsatadi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Folklor an'analarida tarbiya konsepsiysi bo'yicha xorij tajribasi bolalarda milliy tarbiyani shakllantirishda bolalarning shaxs xususiyatlari, ota-onalarni farzand tarbiyasidagi yondashuvlari va metodlarimizni takomilashtirish imkonini beradi. Jumladan badjahllik, o'ta qattiqko'lllik va hamma narsaga qat'iy talab qo'yib chegaralash, bolaning axloqiga salbiy ta'sir ko'rsatishini bo'yicha juda ko'p tajribalar mavjud. Ko'plab millat va ellatlar yosh go'daklarga e'zoz bilan munosabatda bo'lganliklarini ko'plab xalqlarini o'rgangan aksariyat etnopedagog tadqiqotchilar yozib ketishgan [3]. Demak bugungi kunda ko'plab ota-onalarni bolasi g'azabnok, jahldor, agressiv bo'lib qoldi kabi gap so'zlaridan bilish mumkinki, bugungi yosh ota-oanalar ota-bobolari bola tarbiyasida qo'llagan ijtimoiy-psixologik bilimlarni unutishgan va bilishga intilishmayapti.

Tarbiyaning mayin, mehrli usullari orqali inson ruhiyatida bag'rikenglik, bosiqlik, his-tuyg'ularini jilovlay olish kabi xislatlar shakllantirilgan. Yos bolalarga "podsho" kabi e'zoz bilan munosabatda bo'lish nafaqat o'zbeklarga, balki butun sharq xalqlariga xos xususiyatdir. Masalan, yaponlar ham o'zbeklar kabi go'dakni iloji boricha yig'latmaslikka harakat qilishadi. Ayniqsa, o'g'il bolalarni besh yoshga qadar sira ham tergashmaydi [5].

Psixologlar va pediatr-shifokorlarning tajribasiga ko'ra, uch yoshgacha bo'lgan bolalarning bir necha oy ota-ona mehri-muhabbatidan mahrum qilishning o'zi unga katta ma'naviy zarba bo'lib, uning aqliy, axloqiy va hissiy rivojlanishiga jiddiy zarar yetkazar ekan. Aynan kattalar bilan muloqotda go'dak nutq va fikrlash ko'nikmalarini o'rganadi. Go'dak hayotining ikki yoshga qadar bo'lgan davridagi ota-ona bilan muloqot jarayonida shaxsning muhim xususiyatlaridan biri - yaqinlik tuyg'usi tarbiyalanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bola shaxsining shakllanishida ijtimoiy-psixologik omillari va vositalarini sharq mutafakkirlari qarashlari asosida tahlil qilish, ta'lim tizimida o'quvchilarni barkamol qilib tarbiyalash bilan bog'liq jarayonlarni rivojlanishiga xizmat qiladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1.Sh.R.Barotov, E.M.Muxtorov O'smirlarda o'z-o'zini psixologik muhofaza qilish haqidagi tasavvurlarni shakllantirishning ilmiy-amaliy asoslari. Toshkent "Fan" nashriyoti 2008-yil.

2.O.Safarov. O'zbek folklori. Darslik - T., Musiqa. 2010. - 5 b.



- 
4. Ishmuxamedov R.J., M.Yuldashev Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.- T.: "Nihol" nashriyoti, 2013, 2016.-279 b
  5. Ivanova YE.M. Psixotexnologiya izucheniya cheloveka v trudovoy deyatelnosti. -M.: Izd. MGU, 1992.- 94 s.
  6. Imomnazarov M., Eshmuhamedova S. Milliy ma'naviyat asoslari.- T.: Islom universiteti, 2001. – 432 b.